



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Qo‘chqarova Shoxsanam Elbek qizi

Qo‘qon DU 13.00.02- “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” 1-bosqich
tayanch doktoranti.

Telefon: +998999020996

E-mail: shoxsanamelbekovna@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8994-458X>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonining nazariy asoslari, uning mazmuni va tuzilmasi tahlil etilgan. Pedagogik tayyorgarlikning mohiyati, tarkibiy qismlari hamda zamonaviy ta’lim talablariga muvofiq shakllantirish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlarning ahamiyati ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, nazariy asoslar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kasbiy madaniyat, o‘qituvchilik faoliyati.

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations of forming the professional training of future teachers, revealing its content and structure. The essence and components of pedagogical training, as well as the directions for its development in accordance with modern educational requirements, are highlighted. In addition, the significance of learner-centered, competence-based, and systematic approaches in enhancing professional training is scientifically substantiated.

Keywords: Professional training, pedagogical competence, theoretical foundations, learner-centered approach, professional culture, teaching activity.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы формирования профессиональной подготовки будущих педагогов, раскрыты её содержание и структура. Освещены сущность педагогической подготовки, её составные элементы, а также направления формирования в соответствии с современными требованиями образования. Кроме того, научно обосновано значение лично-ориентированного, компетентностного и системного подходов в развитии профессиональной подготовки.

Ключевые слова: Профессиональная подготовка, педагогическая компетенция, теоретические основы, лично-ориентированный подход, профессиональная культура, педагогическая деятельность.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Kirish

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanish bosqichida har qanday soha tayanchini, avvalo, bilim va tajriba tashkil etadi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikamizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalari singari ta'lim sohasini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qayd etildi. Bugungi kunda ta'lim tizimida juda katta ko'lamda va keng miqyosda olib borilgan va izchil davom etayotgan o'zgarishlar, islohotlar samarasi yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yuqori darajada shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki pedagogik faoliyat faqat bilim berish emas, balki o'quvchi shaxsini tarbiyalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy qadriyatlarni singdirish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu boisdan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini nazariy jihatdan chuqur o'rganish, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini uyg'un shakllantirish zamon talabi hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Kasbiy tayyorgarlik tushunchasining nazariy mohiyati

Kasbiy tayyorgarlik – bu bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy fazilatlar majmuasidir. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy tayyorgarligini zamon talablariga moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kasbiy tayyorgarlikning nazariy asoslari psixologiya, pedagogika, didaktika, sotsiologiya va falsafa fanlari bilan uzviy bog'liqdir. U shaxsning kasbiy shakllanishini ta'minlaydigan ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy tayyorgarlik deganda kishi psixik (ruhiy) xolati va jismoniy sog'lomligining tegishli darajasi bajariladigan ish-faoliyat talablariga mos kelishi tushuniladi. Taniqli psixolog olim K.K. Platonov ta'kidlaganidek, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi – shaxsning sub'ektiv holati bo'lib, u o'zini tegishli kasbiy faoliyatni bajarishga qobiliyatli va tayyor deb hisoblashini bildiradi [1]. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatning sifati va samaradorligi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi hisoblanadi. U har qanday faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asosiy, majburiy shart va sharoit hisoblanadi. Tayyorlik deganda shaxs rivojlanishining ma'lum bir darajasi, vaqtinchalik vaziyat, munosabat, faoliyatni tartibga solish mexanizmi, maxsus uzoq muddatli yoki qisqa muddatli ruhiy holat va muayyan harakatlarga yo'naltirilgan shaxs kuchlarining jamlanishi tushuniladi. Tayyorlikni qiymat yo'nalishlari darajasida talqin qilish mumkin, bu sifat va holat, va dinamik jarayon [2]. Kasbiy tayyorgarlik – bu ta'lim oluvchilarni ma'lum bir ish, ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'zlashtirishni jadallashtirish maqsadidagi kasbiy ta'lim tizimi. Kasbiy tayyorgarlik talabalarning ta'lim darajasini oshirish bilan amalga oshmaydi. Davlat zarur hollarda asosiy umumiy ta'limga ega bo'lmagan shaxslarga



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



kasbiy tayyorgarlikni qo'lg'a kiritish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy tayyorgarlikni boshlang'ich kasb-hunar ta'limi muassasalarida va boshqa ta'lim muassasalarida olinishi mumkin [3]. Bunday faoliyatga kasbiy yo'naltirilgan bilim, ko'nikma, qobiliyat shuningdek kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishni ta'minlovchi tashkiliy va pedagogik tadbirlar tizimi kiradi. Bu pedagogik institutlar, universitetlar va qayta tayyorlash fakultetlarida o'qitish doirasida amalga oshiriladi. Mazkur jaoayonlarning mu him tarkibiy qismi – pedagogik amaliyot hisoblanadi.

2. Kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

Motivatsion-kompetensiyaviy komponent – o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish, mas'uliyat, o'zini kasbiy jihatdan rivojlantirishga intilish.

Bilimiy-kommunikativ komponent – pedagogik, psixologik, metodik bilimlarni egallash, muloqot madaniyatini shakllantirish.

Amaliy-refleksiv komponent – o'quv jarayonida o'z tajribasini tahlil qilish, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish, o'z faoliyatini takomillashtirish.

Bu komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligini belgilaydi.

3. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar

Bugungi pedagogik ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv keng qo'llanilmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv — har bir talabanning shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga oladi.

Kompetensiyaviy yondashuv — o'qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan funksional kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv — bilimni amaliyotda qo'llash, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish omillari

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

ta'lim muassasasidagi ilmiy-metodik muhit;

o'quv va pedagogik amaliyotning samaradorligi;

ustoz-shogird tizimining mavjudligi;

innovatsion texnologiyalar va raqamli resurslardan foydalanish;

shaxsiy motivatsiya va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilish.

Mazkur omillar uyg'unlashgan holda ta'lim jarayonida sifatli kasbiy shakllanishni ta'minlaydi.

Xulosa

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayoni ko'p qirrali, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Bu jarayonning nazariy



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



asoslarini chuqur o‘rganish o‘qituvchi tayyorlash sifatini oshirish, ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish pedagog kadrlarning kasbiy yetukligini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Щуркова Н.Е. Практикум по педагогической технологии. -М.: Педагогическое общество России, 1998. —250 с. 2. Хозяинов Г.И. Мастерство педагога в процессе образования и обучения [Электронный ресурс]: монография / Г.И. Хозяинов .— М. : Физическая культура, 2006 .— 224 с. — Библиогр.: с. 201-203. - ISBN 5-9746-0020-7 .— ISBN 978-5-9746-0020-7 .— Режим доступа: <https://rucont.ru/efd/286718> 3. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. — М., 2002. 223 б. 4. Дружинин В. “Психология” Учебник для гуманитарных вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2001. - 656 с.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–6108-sonli qarori, 2021 yil.
4. Abduqodirov A.A. Pedagogik mahorat va kasbiy tayyorgarlik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
5. Jalolov J. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Hasanboeva O., Raxmonqulova D. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning roli. // Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2023.
7. Shukurova M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2022.